

## YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JADID MUTAFAKKIRLARI QARASHLARINING IJTIMOYIY-FALSAFIY OMILLARI

To‘xtanazarov Iloxom Ibragimjanovich

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Harbiy ta‘lim fakulteti Uslubiy tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi*

*dosent zaxiradagi mayor*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jadid mutafakkirlari butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganliklari, hamda bugungi kunda biz ularni vatanga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirishni mulohaza qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Millat, ma‘rifatparvar, jadidlar, yoshlar, yoshlar, vatanparvarlik, ta‘lim va tarbiya.*

### KIRISH

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi – mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta‘lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi. Bu haqda Mudofaa vazirligi matbuot xizmati xabar qilmoqda.

Vatanning mustabidlar zulmidan ozod bo‘lishini, elga erk, hurriyat istagan xalqimizning qalbi uyg‘oq farzandlari bo‘lmish jadidlar hamisha fikr-u yodimizni egallaydi. Bu millat oydinlari tarixini, hayoti va faoliyatini o‘rganganimiz sari ular barhayot bo‘laveradi, yuraklarimizning bir chetini tirnayotgan armonlar qayta gavdalanaveradi. Ma‘rifatparvar jadid bobolarimiz butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Bugungi kunda ularning hayotini o‘rganish va targ‘ib etish muhim vazifa sanaladi.

XX asr boshlarida butun Turkistonda yangi kuchga kira boshlagan jadidchilik harakati o‘lkaning barcha sohadagi ishlarining kelajagini belgilab berdi. Jumladan, yangi adabiyot, publitsistika, siyosat va hokazolar. Davr ushbu yo‘nalishlarning xarakterini aniqlab bergan namoyandalari ham o‘rtaga chiqardi. Ushbu islohotchilik, ya‘ni jadidchilik nomi bilan tarixga kirgan keng qamrovli harakat jamiyatning barcha sohalarini teng qamrab oldi. Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma‘rifatparvar kishilar edi.

Ma‘rifatparvarlar keng ma‘noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma‘noda ma‘rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma‘rifatparvarlari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik,

diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarining asl sabablari deya talqin etdilar. Ular podsho yakkahukmronligi (absolyutizm)ga qarshi kurashdilar, siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoqlab chiqdilar. Turli mamlakatlarda ma'rifatchilik harakatlari o'ziga xos, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan, ammo ularning mushtarak jihatlari ham mavjud edi. Bu jihatlar Turkiston jadidlari faoliyatida ham namoyon bo'ldi. Jumladan, ular mavjud tuzum, uning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalaridagi barcha salbiy ko'rinishlariga va kamchiliklariga qarshi kurashish; maorif, erkinlik, hayotning insoniy-madaniy jihatlarini shakllantirish, ularni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ma'naviy va axloqiy me'yorlarni takomillashtirish; xalq manfaatlarini himoya qilish, farovonligini oshirishga sidqidildan intilish yo'ldan bordilar. Jadidlar Turkistonda azaldan mavjud bo'lgan, ya'ni Alisher Navoiy, Mirzo Bedil va Boborahim Mashrabdan qolgan merosdan foydalangan holda Turkistonda demokratik va taraqqiyparvar g'oyalarni davom ettirdilar. Turkiston ilg'or ziyolilari erishgan yutuqlari orasida eng salmoqlisi hukmron mafkuradan mustaqil bo'lgan xalq ta'limi tizimining yaratilishi, hamda milliy matbuotga asos solinishi edi. Bu esa o'z navbatida progressiv g'oyalarni tarqatish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) ning xizmati katta bo'ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tarildi. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'l boshchisi edi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga "Behbudiya kutubxonasi" deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) — Turkiston o'lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma'rifatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyandaligidan biri. 1904-yildan boshlab o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ'ibotchisi bo'lgan. Munavvarqori maktablar uchun "Adibi avval", "Adibi soniy", "Yer yuzi" kabi darsliklarni yaratdi.

Dastlabki paytlarda madaniy-ma'rifiy, keyinchalik siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan islohotchilik harakati faol ishtirokchilaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'ildi. U maktab va madrasada ta'lim olib, o'z zamonining ma'rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yil "Shuhrat" gazetasiga asos soldi.

O'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklarni yaratdi. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ham ma'rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do'konlari ochdilar.

Jadidlar fors, arab, rus va boshqa tillarni o'rganish davr talabi ekanini qayd qilib, yoshlarni til o'rganishga da'vat qilganlar. Ammo dastlab o'z ona tilini bilishi kerakligini ta'kidlab, o'z tilini yaxshi bilmagan boshqa tilni ham yaxshi o'rgana olmaydi, deb hisoblaganlar. Yangi usul maktablarida o'zbek tilida o'qitishni keng joriy qildilar. Fors va arab tilidagi darsliklar o'rnini o'zbek tilidagi o'quv qo'llanma hamda darsliklar bilan bosqichma – bosqich to'ldirib bordilar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash doirasida ular uchun turli musobaqalar, ko'rgazmalar va ma'sul tizim va idoralar vakillari bilan uchrashuvlar

tashkillashtiriladi.

- yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini muvofiqlashtirish uchun xududiy shtablar tashkil etiladi;
- harbiy xizmatchilar tomonidan mahallalarda tashviqot ishlari olib boriladi;
- “Vatan himoyasi” yoshlar va o‘smirlar harakati hamda harbiy qismlarda Yoshlar ittifoqini faoliyati takomillashtiriladi;
- Uyushmagan va huquqbuzarlik sodir etishga moyil yoshlar uchun “Harbiy qismda bir kun” kabi tadbirlar o‘tkaziladi;
- “Vatanparvar” tashkilotlarida ochiq eshiklar kun o‘tkaziladi;
- sog‘lom turmush tarzi, yot g‘oyalar va jinoyatchilikka qarshi kurashni targ‘ib qiluvchi hujjatli va badiiy filmlar namoyish etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent:
2. Jadidchilik:isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.
- 3.2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish Konsepsiyasi.